

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF OLAMGA NISBATAN
MAS'ULIYATLIKLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI****Xurramova Iroda****Termiz davlat pedagogika instituti****3-bosqich talabasi****Abdulkhlimova Fotima Turduqil qizi****Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15655954>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof olamga nisbatan mas'uliyatlilikni shakllantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof olam bilan tanishtirish usullari hamda shakllari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, metod, ekologik munosabat, ekologik madaniyat, atrof olam, ekologik tarbiya, ekologik ta'lim, muloqot, sezgi, idrok, tafakkur.

Kirish:

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida ham o'quvchilarga atrof olamga bo'lgan munosabat, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya va atrof olamni asrab avaylashda befarqlik bo'lmasligi haqida fikrlar hamda ma'lumotlar berib borilmoqda. Bu borada yurtimizda bir qancha huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Asosan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha qabul qilingan huquqiy hujjarlarda "ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktab ta'lim sifatini oshirish, maktab ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'lim va tarbiyaga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llanadigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish" kabi vazifalar belgilangan. Tabiat va jamiyat uyg'unligi umumiy olganda insoniyatning tarixiy rivojlanishida muhim mezon hisoblanadi. Biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shaxs makon va zamonda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bu faoliyat mazmunini atrof olamdagi voqea va tabiatdagi hodisalarning mohiyati, narsa va buyumlarning nomi, vazifasi, belgi xususiyatlari hamda ularga munosabatlar tashkil etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurida atrof olam haqidagi ilk tasavvurlar paydo bo'ladi, atrofdagi voqea va hodisalarning oddiy o'zaro aloqadorligi qonuniyatini anglash ko'nikmasi shakllanadi. Shuningdek, o'quvchilarda olgan bilimni mustaqil ravishda amaliy faoliyatida qo'llay oladi. Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof olam bilan tanishtirish ularda qiziquvchanlik, atrof olamga nisbatan munosabat hamda madaniyat tuyg'ulari ortib boradi. Bilish qobiliyati hamda "boshlang'ich ta'lim o'quvchisi imidji" rivojlantiriladi. Ijodiy tasavvur esa, o'quvchida intellektual va shaxsiy sifatlarning shakllanishiga turtki beradi. Sezgi organlari orqali o'quvchilar atrof olamni ko'radi, his qiladi, anglaydi. Atrof olamni anglashlari natijasida insonning tana a'zolari va ularning vazifalari, sog'lom hayot tarzi haqidagi tushunchalarga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof olam bilan tanishtirishdan asosiy maqsad shuki boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof olam bilan tanishtirishga oid mamlakatimiz va xorijiy olimlarning pedagogik g'oyalarini o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Atrof olam bilan tanishtirish orqali o'quvchilarda bilish jarayoni faollashadi. Sezgi, idrok, xotira va tafakkur rivojlanishida atrof olamdagi voqea va hodisalar, narsa va buyumlarning xususiyati muhim omil hisoblanadi hamda o'quvchilarning intellektual rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'z shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etishlari, bilim olishga bo'lgan qiziqishi va ehtiyojini qondirishda ota-

onaning e'tibori, kattalarning shaxsiy namunasi, o'qituvchining bilimi va mahorati alohida o'rin egallaydi. O'quvchilarga samimiy munosabat, ta'limga zamonaviy yondashuv, xorijiy tajribalarni o'rganish va ularga ko'ra milliy ta'lim berish usullarini qo'llash bugungi kunda pedagog-tarbiyachilar oldidagi eng muhim asosiy vazifadir. Psixolog olim R.S.Nemovning fikricha, "Inson barcha bilimlarni turli manbalardan olishi mumkin. Inson bolalikda atrofidagi odamlarga duch keladi, ya'ni ota-onasi, qarindoshlari va ularning o'rnini bosadigan boshqa kishilar bilan muloqotda bo'ladi. Bola kattalar bilan muloqotga kirishar ekan, ularning bolaga bildirgan munosabati, fikri ta'sirida nutqni o'zlashtiradi, unda o'zini o'zi baholash va o'ziga ishonch hissi paydo bo'ladi, shaxsiy tasavvurlar shakllanadi, atrofidagi narsa va buyumlar, odamlarni tushunishni o'rganadi". Natijada, o'quvchi o'zining bilish faoliyati hamda irodaviy va boshqa sifatini baholaydi. A.S.Simonovich "Bolalarda bir-biri va atrofidagi boshqa odamlarga bo'lgan ijobiy munosabatning rivojlanishiga yordam berish; o'yinlar orqali borliq va atrof olamni tahlil qilish; bolalarda hissiy intellektni amaliy va hayotiy yo'llar bilan rivojlantirish; syujetli o'yinlar orqali xulosa chiqarish; biror bir voqelikning kelib chiqish sababi va oqibatini o'rgatish; bolalarga maktabda va sinfda o'zini qanday tutish kerakligini o'rgatish zarur" deb ta'kidlaydi. Tengdoshining yutug'i, o'zining shaxsiy muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligini qiyoslaydi, o'zini tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi. Bularning barchasi atrof olamning o'quvchiga ta'siri natijasida sodir bo'ladi.

Atrof olam o'quvchilarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Tabiatning go'zalligi, manzarasi barchani, Yoshi kata va Yoshi kichikning ham e'tiborini o'ziga rom qilmasdan qolmaydi. O'quvchilarning tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o'rmoning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari hayvonlarning harakatlariga qaratishlari kerak. Buning muhim jihati kelajakda o'z hayotiga dunyoning barcha va xilma-xil go'zaliklarini idrok eta olishga sharoit yaratishdir.

XULOSA. O'quvchilarni atrof olam bilan tanishtirishda o'qituvchi hamda oila hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Atrof -olam tushunchasini o'rgatish maktabda va oilada birgalikda olib borilsa, o'quvchi tabiatga nisbatan mehr-muhabbatli, muruvvatli va rahmdillik hissi yaxshi shakllanadi. Ekologik tarbiya hamda atrof-olam tushunchasini o'rgatishda o'quvchilarda tabiat tushunchasini shakllantirib borish, keyin metodlar haqida bilim berilsa maqsadga muvofiq bo'lar ekan. O'quvchilarga tabiat haqidagi tushunchani muntazam amalga oshirish kerak. O'quvchilar dunyoqarashi va fikrlari sezilarli darajada oshadi, bu birinchi navbatda o'quvchilarda tabiatga nisbatan mehr tuyg'usini shakllantiradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bohonova U.A. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning psixologik – pedagogik xususiyatlari". Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022.
2. Karomatova D.S. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishdagi muammo va yechimlar". Journal of new century innovations .2023.
3. "Ilk qadam" Davlat dasturi. T-2018.
4. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari" T2018.

5. Ашиков В.И., Ашиков С.Г. Программа и руководство по культурно экологическому воспитанию и развитию детей. – М.: Дошкольное воспитание 2012

